

D.Bekjanov, G.Aliyeva, S.Cho‘panov

“TUROPEREYTING” FANIDAN KURS ISHI YOZISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
TURIZM KAFEDRASI

D.Bekjanov, G.Aliyeva, S.Cho'panov

"TUROPEREYTING" FANIDAN KURS ISHI YOZISH
(uslubiy ko'rsatma)

O'quv uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy
kengashi tomonidan 2016-yil 9-dekabrda 2-sonli yig'ilishi bayonnomasi qara-
roriy'ii asosida nashrga tavsiya etilgan.

Urganch - 2017

378:379.83 B 49 74.58 B 49

D.Bekjanov, G.Alieva, S.Cho'panov. "Turopereyting" fanidan kurs ishi yozish. Uslubiy ko'rsatma. Mas'ul muharrir **D.Xudayberganov.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Urganch davlat universiteti. Urganch, UrDU noshirlik bo'limi, 2017-yil. 28 bet.

UO'K 378:379.83 KBK 74.58

Mazkur uslubiy qo'llanma 5610300 - "Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)" va 5610200 - "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda kurs ishlarini talab darajasida tayyorlash aniq va to'g'ri rasmiylashtirish, ishni amalga oshirish tartibiga oid amaliy tavsiyalar bayon qilingan.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrig'i bilan amalga kiritilgan "Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" hamda "Turizm" kafedrasida fanlar bo'yicha kurs ishlarini tashkil etish borasidagi to'plangan tajribalar inobatga olinib ishlab chiqildi.

Uslubiy qo'llanma "Turopereyting" fanini o'rganuvchi va qiziquvchi talabalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir D.Xudayberganov, **i.f.n., dots.**

Taqrizchilar: F.Abdullayev, **i.f.n., dots., U.Matyoqubov, i.f.n., dots.**

ISBN: 978-9943-4951-2-8 © UrDU noshirlik bo'limi, 2017.

© D.Bekjanov, G.Alieva, S.Cho'panov.

"Turopereyting" fanidan kurs ishi yozish. Uslubiy ko'rsatma.

KIRISH

Mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri -ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishdan iborat. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullar, shakl va vositalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassalarida fanlar bo'yicha kurs ishini yozishda talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zaro bog'lagan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Kurs ishini yozishda talabalar shu fan bo'yicha o'quv dasturida ko'rsatilgan asosiy adabiyotlar bilan birga, fanga oid xorijiy va milliy ilmiy jurnallar, internet tarmog'i materiallari, shu jumladan, "Ziyonet" tarmog'i resurslari va Statistik ma'lumotlardan keng foydalanishi nazarda tutiladi.

"Turopereyting" fanidan talabaga kurs ishi berish o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni mavzular ustida kurs tadqiqotlar olib borishga tayyorlashdir.

Talabalarga kurs ishi berishdan asosiy maqsad muammoli mavzu yechimini topishda adabiyotlar va statistik ma'lumotlar ustida ishlashni o'rgatish, muammolar ustida har xil tadqiqotlar olib borishni va ularni tahlil qilish, muammolar yechimini topishda ilmiy xulosalar va natijalarni chiqarishdan iborat.

Kurs ishi yozishda talaba, asosan, qiyosiy tahlil qilish yo'llarini, muammolar ustida ishlashda bir nechta adabiyotlardan foydalanish va yakuniy xulosalar chiqarishni o'rganishda yordam beradi. Bunda o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlari, anglash faolligi rivojlantiriladi.

Mazkur kurs ishi yozish va himoya qilish uchun tayyorlangan uslubiy qo'llanmada mualliflar fan bo'yicha o'quv dasturi, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, xorijiy adabiyot va internet resurslaridan olingan manbaalardan keng foydalanishgan bo'lib, asosiy e'tibor talabalarning fanni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish hamda fan bo'yicha oigan nazariy bilimlarni amaliyotga bog'lagan holda ilmiy rahbar bilan hamkorlikda kurs ishi yozish va uni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.Kurs ishi yozishning maqsad va vazifalari

"Turopereyting" fanidan talabaga kurs ishi berish o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni mavzular ustida kurs tadqiqotlar olib borishga tayyorlashdir.

Kurs ishi yozishda talaba, asosan, qiyosiy tahlil qilish yoilarini, muammolar ustida ishlashda bir nechta adabiyotlardan foydalanish va yakuniy xulosalar chiqarishni o'rganishda yordam beradi.

Talabalarga kurs ishi berishdan asosiy maqsad quyidagilardir:

muammoli mavzu yechimini topishda adabiyotlar va statistik ma'lumotlar ustida ishlashni o'rgatadi;

muammolar ustida har xil tadqiqotlar olib borishni va ularni tahlil qilishni o'rganish;

muammolar echimini topishda ilmiy xulosalar va natijalarni chiqarishda katta yordam beradi.

2. Kurs ishini tashkillashtirish

2.1. Ishning mavzusini tanlash

Talaba mavzuni tanlashda quyidagilarni nazardan chetda qoldirmasligi lozim:

- fanning maqsad vazifasidan kelib chiqqan holda, milliy va xalqaro turizm sohasida dolzarb bo'lgan muammolarni;

- turizm sohasidagi muammolar ustida mutaxassislar va ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish;

- oldiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqib, mutaxassislardan kerakli ma'lumotlar bazasini olish va ish ustiga ishlashdir.

2.2. Ishning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish

Talaba kurs ishining rejasini tuzishda ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirishi kerak. Ishning rejasi tuzilgandan so'ng talaba kafedra mudiri yoki uning yordamchisidan tasdiqlatib olishi lozim.

Talaba ish rejasini tasdiqlatib olgandan so'ng rejaga qat'iy amal qilgan holda ishni bajarishi lozim. Har bir vazifani bosqichma-bosqich qat'iy reja bo'yicha ilmiy rahbar nazoratida amalga oshirishi kerak. Birinchi bosqich vazifalari bajarilmasdan keyingisiga o'tib bo'lmaydi. Bir bosqich amalga oshirilmay qolsa, ishdan samarali natija kutib bo'lmaydi.

2.3. Kurs ishida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar

2.3.1. Kafedraning asosiy vazifalari

Kafedra tomonidan kurs ishini yozishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak.

- kurs ishi mavzularini tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish;
- talaba mavzuni tanlashida unga kerakli ko'rsatmalar va amaliy yordam berish;

- talabaga ilmiy rahbarlarni tayinlash va biriktirish;
- talabaning ishini tayyorlashi uchun rajani tasdiqlab berish va uning vazifasini bajarishini nazorat qilish;

- talaba tomonidan bajarilgan ishning sifatiga taqriz berishdan iborat bo'ladi.

2.3.2. Ilmiy rahbarning vazifalari

Talabaning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- talaba ishni bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berishi;
- ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berishi va adabiyotlarni tavsiya etishi;

- talabaning rejasini tasdiqlashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishni tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;

- talaba ishni bajarishida tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi;

- talabalar ishini qoida asosida qabul qilib olishdan iborat.

2.3.3. Talabaning vazifalari

Talaba kurs ishni bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;

- ilmiy rahbar bilan hamkorlikda reja tuzish va shu asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi;

- o'rnatilgan tartib bo'yicha kurs ishning hisobotini o'z vaqtida kafedraga taqdim etishi kerak.

2.3.4. Talabalarning bilim darajasini tekshirib ko'rish

Talabaning kurs ishini bajarishga tayyorgarligini tekshirib ko'rish uchun quyidagi savollar berilishi maqsadga muvofiqdir:

- mavzuni yoritish uchun zarur bo'lgan milliy va xalqaro adabiyotlarni izlab topishi va uni qo'llay olish imkoniyati;

- zarur bo'lgan statistik ma'lumotlarni yig'ish va uni ilmiy raxbar bilan maslahatlashgan holda kurs ishiga kiritish;

- kirish qismi va har bir bobni yozganda ilmiy raxbarga maslahatlashish uchun ko'rstib borish;

- mavzu bevosita amaliyotdagi tadqiqot obyektiga bog'langan boisa, bevosita hamkor korxona yoki tashkilotdan tashqi maslahatchi tanlash;

- ishni bosqichma bosqich yozib boorish va tayyor bo'lgandan keyin ilmiy raxbarga taqdim etish;

•kurs ishini himoya qilish uchun taqdimot ko'rinishida doklad tayyorlash va uni himoya qilish.

2.4. Ishga tayyorgarlik

"Turopereyting" fanining maqsadi va vazifalari. Turopoperator tushunchasi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida "Turopereyting" fanini o'rganish asoslari.

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishida turopoperatorlik va turagentlik biznesining o'rni.

Turizm biznesida turopoperatorlarning ahamiyati.

Turopoperator va turagentlarning tarixiy rivojlanishi va funksiyalari.

Turopoperator faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

Turopoperatorlik faoliyatini tashkil etishning zamonaviy usullari.

Turopoperator va turagentlar faoliyatining tushunchasi va turlari.

Turopoperatorlik faoliyatini boshqarish bosqichlari.

Turizmda asosiy boshqarish bo'limlari va ularning funksiyalari.

Turopoperatorlarning turkumlanishi.

Turopoperatorlarning xizmat ko'rsatish tartibi.

Turopoperatorlarning vazifalari va faoliyati.

Turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi.

Turopoperatorlar tomonidan turizmda reklamani tashkil etish.

Turopoperator tomonidan marshrutlarni ishlab chiqish.

Turistik mahsulotni hisob-kitob qilish tartibi.

Turopoperatorlik faoliyatini loyihalashtirish va xizmatlar dasturi- ni ishlab chiqish.

Turopoperatorlik faoliyatini tashkil etishda davlat siyosati.

Turopoperatorlar tomonidan xizmatlar paketini yaratish va xizmat ko'rstavchilar bilan shartnomaviy munosabatlar.

2.4.1. Adabiyotlarni tanlash

Fanga ta'luqli bo'lgan barcha turdagi adabiyotlarni va manbalarni ko'rib chiqish lozim. Ular, asosan, quyidagilarga bo'inadi:

maxsus:

ilmiy;

ilmiy-ommobop;

maimotnomalar, shu singari statistik;

umumiy.

2.4.2. Adabiyotlarni o'rganish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish

Adabiyotlarni o'rganishdan oldin yana bir bor mavzuni to'g'ri tanlanganligiga ishonch xosil qilish lozim. Talaba adabiyotlarni kurs ishi mavzusini to'g'ri tanlashi kerak. Ilmiy rahbarning vazifasi talaba tanlagan manbalarni qayta ko'rib asosiylarini qoldirishdir.

Manbalarni to'plashda talaba uning chop etilgan yiliga ham alohida e'tibor berishi lozim. Eski manbalardan olingan ma'lumotlar bugungi kundagi dolzarb hisoblangan muammolarni yechishda unchalik ahamiyatli bo'lmay qoladi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda, o'ziga eng ma'qul deb topgan ma'lumotlarni olgandagina olib borgan tadqiqoti samara beradi.

3. Kurs ishi strukturasi

Kurs ishi mavzusi tanlanib, unga ilmiy rahbar tanlanib, tasdiqlangandan so'ng, talaba ushbu mavzu bo'yicha adabiyotlar, ilmiy maqolalar, adabiy manbalari, hujjatlarni o'rganishga kirishadi.

To'plagan materiallar asosida ishning to'liq rejasi tuziladi.

Kurs ishi rejasi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- kirish, asosiy qism, 2 yoki 3 ta bobdan paragrafdan iborat bo'лади;
- xulosa (fikr-mulohaza va takliflardan iborat), foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar.

- paragraflar nomi mavzu nomini takrorlamasligi kerak.

Kurs ishi titul varag'i yagona nusxa bo'yicha rasmiylashtiriladi (1-ilogaga qarang).

1 Titul varag'idan keyin ishning mundariyasi beriladi (strukturasi). Bunda har bir paragraflar nomi va varaqlar soni yoziladi. (2-ilogaga qarang).

Ishning kirish qismida ishning maqsadi, vazifalari, mavzuning dolzarbligi, ilmiy, amaliy va uslubiy yondashuvi asosi, ishning mazmuni beriladi.

Asosiy qismda har bir paragraflarning to'liq mazmunini, statistik ma'lumotlarning iqtisodiy tahlillari qonuniy asoslari qo'yilgan muammolar bo'yicha iqtisodiy hisob-kitoblar, tashkilot va korxonalarning tajribalari, hozirgi vaqtdagi mavjud muammolar tahlili va ularni bartaraf etish yo'illari yoziladi.

Bularning barchasi qo'yilgan talablarga javob berishi, ish ilmiy, aniq, asoslangan xarakterga ega bo'lishi kerak. Har bir paragraflar qisqa xulosalar bilan tugallanishi kerak.

Kurs ishining asosiy qismi, ish umumiy hajmining 60% ni tashkil qilishi kerak. Ishda izlanish ob'ektlarining tashkiliy va iqtisodiy xarakteristikalari, boshqaruv sxemalari va ularning bog'iqligi ko'rsatiladi.

Faktlar materiallari ko'rsatkichlar, jadvallar, sxemalar, diagrammalar ko'rinishida beriladi va ular iqtisodiy tahlil etiladi, ular yuzasidan izohlar beriladi.

Ishda iqtisodiy ko'rsatkichlar bir necha yillar misolida tahlil etilishi, ularning iqtisodiy, qonuniy asoslari, boshqaruv va mulkning tashkiliy huquqiy formalari, huquqiy statuslari hamda ular muvofiqligi ko'rsatilishi kerak.

Kurs ishining xulosa qismida ish yuzasidan barcha xulosalar umumlashtiriladi, o'z fikr-mulohazalari bildiriladi, amaliy taklif va tavsiyalar beriladi. Taklif va mulohazalar talabaning o'ziniki bo'lib, u ishda qayd etilgan takliflarni takrorlamasligi kerak.

Agar talaba sitatalar bo'yicha havola (ssilka)larni ishning oxi-rida bersa, unda matnda ularning nomerlari ko'rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida talaba kurs ishida foydalanilgan adabiyot va hujjatlarnigina yozishi kerak.

Adabiyotlar ro'yhatini berishda hujjatlarni joylashishi va bibliografik yozuvlarning to'g'ri yozilishiga ahamiyat berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ularni bir necha guruhlariga bo'lish tavsiya etiladi. Hujjatlarni va adabiyotlarni guruxlar bo'yicha joylashtirish misoli ilovada ko'rsatilgan.

4. Kurs ishini texnik rasmiylashtirish

Ish Standart A4 foimatli oq qog'ozning faqat 1 yuzasiga yoziladi. Standartga mos holda har bir varaqni yozishda 4 tomondan hoshiya qoldirilish kerak.

Chap tomondan - 30 mm;

Yuqoridan - 20 mm;

O'ng tomondan - 10 mm;

Pastdan - 25 mm.

Har bir varaq 10 mm, oraliqdagi 28-32 qatordan (satr) iborat bo'lishi, har bir satr 60-65 belgidan (tinish belgilar va oraliqlarni qo'shib hisoblaganda) va 7000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

Savollar (paragraflar) nomlari asosiy tekstdan oraliqlar bilan ajratiladi(10mm).

Varaqlarni nomerlash pastdan ketma-ketlikka rioya qilgan hoda 3-varaqdan (kirish) boshlab belgilanadi, ya'ni titul varag'i va mundarija- dan so'ng.

Agar kurs ishida avtor ishga taalluqli bo'lgan, sitatalardan foydalansa, u holda sitata olingan hujjatning o'ziga hos xususiyatlari to'liq saqlanishi zarur: orfografiya, punktuatsiya, abzatslar joylanishi, shriftlar ajratilishi. Sitatalar tekstning ichida berilsa, qoidaga muvofiq hoda qo'shtiroq " " ichiga olinadi. Hamma sitatalarga asosiy manbalar bo'yicha havolalar qilinadi. Ular tekst ichida, satrlardan keyin va tekst oxirida bo'lishi mumkin. Asosan varaqning past qismida chiziqdan keyingi yoki tekst ostida ishning oxirida alohida varaqda beriladigan havolalardan foydalaniladi. Havolalar qilganda barcha zaruriy elementlardan foydalaniladi.

5. Kurs ishini himoya qilish

Kurs ishini himoya qilish talaba bilimni yakuniy baholashidan biri bo'lib, u kafedra tomonidan tayinlangan komissiyasining ochiq majlisida himoya qilinadi.

Himoya talabaning o'z ishi yuzasidan taqdimot ko'rinishida tayyorlagan qisqa (10-12 daq) dokladidan iborat. Dokladda mavzuning dolzarbligi, foydalanilgan manbalarning xarakteristikalarini, umumlashtirilgan xulosalar, muallifning bu masala yuzasidan qilgan fikr-mulohazalari va takliflari bayon etiladi. Illustratsiya sifatida talaba oldindan tayyorlangan sxema, jadval, grafik, diagramma, rasmlardan foydalanishi mumkin. Dokladni tugatgach, talaba komissiya a'zolarining savollariga javob beradi.

Himoya natijalari "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" baholarda aniqlanadi.

Kurs ishiga "a'lo" baho mavzuni har tomonlama to'g'ri yoritgan, amaliyotni hozirgi zamon voqeligi bilan uyg'unlashtira oigan, adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlashda bilimni ko'rsata oigan, qo'yilgan barcha talablarga rioya qilib yozgan talabalarning ishiga qo'yiladi.

"Yaxshi" baho asosiy talablarga javob bergan, talab materiallar bilan tanish, lekin ayrim savollarni yoritishga to'liq va har tomonlama javob bera olmaydigan, ayrim kamchiliklari bor ishga qo'yiladi.

"Qoniqarli" baho talablarga javob beradigan, lekin talaba tomonidan savollarga yuzakiroq javob bergan, ishni rasmiylashtirishda kamchilikka yo'l qo'yilgan ishlarga qo'yiladi.

"Qoniqarsiz" baho qo'yilgan talablarga javob bermaydigan, yomon yozilgan ishlarga qo'yiladi.

Kurs ishi himoyasidan "qoniqarsiz" baho oigan talabalar o'quv rejasida ko'rsatilgan mazkur fandan yakuniy baholashga kirish huquqidan chetlashtiriladi.

Kurs ishi himoya natijalari 100 ballik reyting baholash tizimi orqali aniqlanadi.

Kurs ishi himoyasini tashkil etish vaqti	Baholash ko'rsatkichlari	Baholash mezonlari
Qishgi se- mestr oxiri 22-fevral- dan 27-fev- ralcha	56-70 ball	-kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (10-12 ball); kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (10-12 ball); -talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (doklad) darajasi (16-18 ball); -prezentatsiyaning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (10-13 ball): komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollar- ga berilgan javoblar (10-15 ball. Har bir to'g'ri ja- vobga 3 balldan).
	71-85 ball 1	kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (10-12 ball); kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (10-12 ball); -talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (doklad) darajasi (16-18 ball); -prezentatsiyaning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (10-13 ball): komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollar- ga berilgan javoblar (10-15 ball. Har bir to'g'ri ja- vobga 3 balldan); kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallar- ning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asos- lanishi darajasi (5 ball); -soha rivoji uchun talaba tomonidan ishlab chiqil- gan dolzarb g'oya uchun (10 ball).

	86-100 ball	kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (10-12 ball); kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (10-12 ball); -talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (doklad) darajasi (16-18 ball); -prezentatsiyaning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (10-13 ball); komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollar- ga berilgan javoblar (10-15 ball. Har bir to'g'ri ja- vobga 3 balldan);
--	-------------	--

kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma material- laming mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanishi darajasi (5 ball);

soha rivoji uchun talaba tomonidan ishlab chi- qilgan dolzarb g'oya uchun (10 ball);

talabaning jahon iqtisodiyotida bo'layotgan o'z- garishlardan xabardorligi va «nou-xau» yangilik- laridan foydalanish yo'nalishlarini bilishi (5 ball);

kurs ishi himoyasi davomida talaba o'z fikrlarini aniq ifodalashi va ravon yetkazib berishi darajasi (5 ball);

kurs ishi himoyasi uchun belgilangan vaqtdan unumli foydalanganligi (5 ball).

Kurs ishi natijalari barcha talaba uchun to'ldirilgan reyting qaydnomasi orqali rasmiylashtiriladi va komissiya raisi va a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

6. Kurs ishiga ilova etiladigan hujjatlar

6.1. Ilmiy rahbarning kurs ishiga berilgan yozma taqrizi. Kurs ishi- da bevosita tahlil qilinmagan kata hajmli jadval, diagramma, sxema, rasm va normativ huquqiy xujjatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Ilovalarlar asosan 1 dan boshlab tartib raqamlarida ko'rstiladi va shu asosda kurs ishining oxirgi qismida joylashtiriladi.

"Turopereting" fanidan kurs ishi yozish uchun quyidagi mav- zular tavsiya etiladi:

Turoperatorlarning hududiy turizm bozori rivojlanishiga tahsiri va uni o'rganish tartibi.

Turoperatorlarning mamlakatimizdagi turistik hududlar potentsialini aniqlashi.

Turoperatorlarning O'zbekistonda turizm bozorining rivojlanishini o'rganishi.

Turoperatorlarning turizm bozori rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini.

Turoperatorlarning rekreatsion resurslarning turizm bozoriga ta'sirini.

Turoperatorlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida turfirmaning raqobatbardoshligini aniqlashi.

Turoperatorlarning turistik firmalarni makro va mikromuhit darajasida o'rganishi.

Turoperatorlarning turistik firma uchun sotuvlar strategiyasini ishlab chiqishi.

Turoperatorlarning turpaketdagi asosiy va qo'shimcha xizmat mahsulotlarini o'rganishi.

Turoperatorlarning turizm firmasining bozor segmentlarini o'rganishi.

Turoperator va turagentlarning tarixiy rivojlanishi va funksiyalari.

Turoperator faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning xususiyatlari.

Turoperatorlar menejmentining turizmdagi vazifalari.

Turoperator va turagentlar faoliyatining tushunchasi va turlari.

Turoperatorlik faoliyatini boshqarish bosqichlari.

Turizmda asosiy boshqarish bo'limlar va ularning funksiyalari.

Turoperatorlik biznesining turizm industriyasidagi ahamiyati.

Turoperatorlik biznesining rivojlanishi va takomillashtirishda ilmiy-texnik taraqqiyotning ta'siri.

Turoperatorlar va turagentlarning shartnoma tuzish tartibi.

Turoperatorlik faoliyatini rivojlanishida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi.

Turoperatorlik faoliyatini rivojlanishida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi.

Turoperatorlik faoliyatini rivojlanishida AQSH tajribasi.

Ichki turizm uchun faoliyat yurituvchi milliy turoperatorlarning faoliyati tahlili.

Milliy turoperatorlik firmalarini xalqaro yarmarkalarda qatnashishi.

Turoperator va turagentlik firmalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati.

Turoperatorlik faoliyatini tashkil qilishning tashkiliy shakllari.

Xizmat ko'rsatuvchi firmalar va turoperatorlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar.

Xorazm viloyatidagi turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar tahlili.

Turagentlar faoliyati rivojlanishi bosqichlari.

Turoperatorlarni xalqaro toifalarga ajratish usullari.

"A" xalqaro toifadagi turoperatorlarning vazifalari.

Turoperatorlik faoliyatini olib boruvchi turagentlar.

Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi turoperatorlar ishini tashkil etish asoslari.

Kutib olishga ixtisoslashgan turagentlarning faoliyati.

Turagentlarning tuzilishiga ko'ra toifalarga ajratish.

O'zbekistonda yirik turagentlar faoliyatini tashkil qilish.

Mamlakatimizdagi yirik turagentlar faoliyatini yanada takomillashtirish yoilari.

"Pekij" tushunchasi va xususiyatlari va "pekij" turlarni ishlab chiqish.

Turizmدا xizmatlar paketini shakllantirish.

"Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat" halqaro turistik marshtutini shakllanishi va rivojlanishi.

Mamlakatimiz turizm biznesida faol ishtirok etayotgan xalqaro turoperatorlik kompaniyalari va ularning bozordagi ulushi tahlili.

Xalqaro turistlarni jalb qilish bo'yicha vizani rasmiylashtirish tartibi.

Mamlakatimizda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish tartibi va uni xorijiy turistlarni jalb qilishdagi ahamiyati.

Mintaqalarda turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar va ularning bajarilish tartibi.

Turoperatorlar tomonidan xalqaro turistlarni jalb qilishda on-layn reklamadan keng foydalanish.

Mintaqalarda turizmni rivojlantirishda turistik infratuzilmalar rivojlanishi ta'sirini baholash.

Mamlakatimizda turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar o'rtasida raqobatchilik faoliyati tahlili.

Mintaqada mehmonxona industriyasining rivojlanishi va ularda innovatsiyalarni qo'Hashtirish tartibi.

Mamlakatimizda turizmning rivojlanishida transport faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar ta'sirini o'rganish.

"Turizmni rivojlantirishda temir yoi transporti ta'sirini o'rganish" (AK O'zbekiston Temir yo'llari Urganch temir yo'l vokzali mi- solida).

"O'zbekiston havo yoilari" MKning mamlakat turizmi iivojlanishiga ta'sirini o'rganish.

Turizmning rivojlantirishda avtomobillarni ijaraga berish korxonalarining ta'siri va uni mintaqada rivojlantirish.

Mintaqada noan'anaviy turizm turlanini rivojlantirish istiqbol-lari.

Mintaqalarning turistik salohiyatini baholashda turistik resurs-larning tutgan o'rni.

Turoperatorlar faoliyatida ekskursiya xizmatlarining tutgan o'rni.

Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishda mahalliy turoperator-larning tutgan o'rni.

Turoperatorlar tomonidan tashrif buyuruvchi turustlar oqimini bashorat qilish.

Turoperatorlik firmalarini hamkorlar bilan aloqalarni rasmiy-lashtirishda shartnomaviy munosabatlar.

Xalqaro turoperatorlik kompaniyalarining mahalliy turoperatorlar bilan hamkorligi.

Mintaqada turizmda biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub-yektlarga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
TURIZM KAFEDRASI

Mavzu: "Turizmni rivojlantirishda ternir yo'l transporti ta'sirini
o'rganish" (O'zbekiston ternir yo'llari AK Urganch ternir yo'l vokzali
misolida)

KURS ISHI

BAJARDI:

301-turizm guruhi talabasi Shomurotova Xosiyat

Urganch-2017

MUNDARIJA

KIRISH

ASOSIY QISM.

1. Turizm infratuzilmalar rivojlanishining nazariy va amaliy asoslari

2. O'zbekistonda turizm infratuzilmalar rivojlanishi bo'yicha chora-tadbirlar

Turizmda transport xizmatlarini tashkil etish

Xalqaro miqyosda temir yo'l transportida turistlarga xizmat ko'rsatish

Mamlakatimizda temir yo'l transportining rivojlanishi va uning turizmning rivojlanishiga ta'sirini baholash

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

3-ilova

Turistik sayohatining yo'llanmasi va texnologik xaritasini tuzish
Marshrutga xizmat ko'rsatuvchi turistik korxonasining nomi
2017-yil uchun

Marshrut nomi Marshrut bo'yicha turistik sayohatining
TEXNOLOGIK HARITASI

1. Marshrutning asosiy ko'rsatkichlari

Marshrut turi

Murakkablik kategoriyasi

Marshrut uzunligi (km), jumladan, yayov, qayiqda

Sayohat muddati (sutka)

Turistik guruhlar soni

Guruhlardagi turistlar soni

Marshrutdagi jami turistlar soni

Jami odam-kun xizmat ko'rsatilishi

Marshrutda birinchi guruhga xizmat ko'rsatishning boshlanishi

Marshrutda so'nggi guruhga xizmat -II- boshlanishi Sunggi guruhga
xizmat ko'rsatishning oxiri

y	Bir oydagi turistlar soni	Oy lar bo'yicha turistik guruhlar kelish grafigi	Bir oydagi guruhlar soni
1			
2			
2			

Sayohat boshlanadigan turistik korxonasi manzili

Yoilanma narxi

2. marshrut bo'yicha turistlar va sayohatlarga xizmat
ko'rsatish dasturi

Aholi punktlari, ular orasidagi masofa, vositalar	Turistik korxonalar nomi	Rejalashtirilgan turistik xizmatlar. Ekskursiya nomi (-dan)	Marshrut ichidagi tashuvlar	1 kishiga ekskursion xarajatlari

Jami:

jumladan, 1.

korxona i

jumladan, 2.

korxona

jumladan, va h. korxona

Marshrut ichidagi Muhr o'rni Marshrutga xizmat

tashuvlarni quyidagi ko'rsatuvchi korxona

korxonalar amalga rahbarlari imzosi

oshiradi:

Guruhlar topshiriladigan punktlar. Shartli belgilar:

X - Turistik korxonasida xizmat ko'rsatiladi.

SP - quruq holdagi ovqat.

T_{oh} - tunash ochiq havoda (safari palatkalari).

Moliya xizmatlari rahbarlari (bosh hisobchilar) imzosi.

" " 2017-yil

3. Sayohatning qisqacha bayoni (Turistik yoilanmasi ilovasida takrorlanadi)

Marshrutda xizmat ko'rsatuvchi turistik korxonasi rahbari Imzo

4-ilova

Turistik korxonaning yuklama grafigi va marshrutini tuzish

SAFAR TRASSA PASPORTI

1. Turistik korxonasining nomi

nafar

gacha

nusxada

sahifa

Turizm turi safar trassasi

asosiy geografik punktlar nomi

Uzunligi km, davomiyligi

sutka

Bir guruhdagi turistlar soni

Ish davri dan

Pasport tuzilgan payt 200 -yil,

O'zgarishlar kiritilgan: 200 -yil,

200 -yil sahifa

Pasport nusxalari jo'natilgan:

1.

2.

.

.

2. Safar trassasini

bosib o'tish rejasi

Yoi kunlari	Trassa uchastkasi	Km	Harakat vositasi

Jami faol harakat vositalari bilan km.

2. Safar trassasi sxemasi (safari trassasi ko'rsatilgan, masshtabi

1: 200000 dan kam boimagan bosma xarita va sxemalar yelimlanishi mumkin).

Shartli belgilar:
 safar trassasi;
 pana joy lar;
 trassaning zaxira varianti;
 tibbiy yordam punkti;
 tunashjoyi;
 aloqa punkti (turi ko'rsatiladi);
 dam olish nuqtasi.

Safar trassasining qisqacha tavsifi, yo'lning murakkab uchastkalarining bayoni

3. Safar trassasi hududidagi iqlim to'g'risida ma'lumot (mazkur marshrut ishi davriga todiriladi)

Ma'lumotlar	O'ylar	6	7	8	9
Harorat, S ⁰	O'rtacha Minimal Maksimal				
Shamol tezligi, m/s	O'rtacha Maksimal				
Yog'ingarchilikning o'rtacha miqdori, mm	O'rtacha Maksimal				

5. Sodir boiishi mumkin bo'lgan favqulodda hodisalar va guruhning bu paytdagi harakati.

6. Turistlarning safar oldi tayyorgarligiga talab. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar turbazada

	Mavzu	Mashg'ulotlar soat hajmi	O'tkazish shakli

6. Yo'llanma ilova varaqasi matni uchun tavsiyalar. Yo'llanma matniga turistlik jihozlar, kiyim-kechak, poyabzal bo'yicha tavsiyalar kiritadi

8. Trassani bosib o'tish uchun turistlik jihozlari:
 yo'llanma bo'yicha turistlik korxonasi tomonidan beriladigan, shu jumladan, butun guruh uchun (nafar sayyoh va bir ins-

truktorga);

qo'shimcha to'lov evaziga beriladigan

9. Safar trassaning obodonchiligi

Markirovka (ramziy belgilar)

Dam olish joyi, tunash joyi, panajoylar, yo'l obodonchiligi

Korxona direktori _

Katta instruktor

„Kelishilgan“

(kelishuvchi tashkilotlar imzosi)

Pasport tuzish bo'yicha ko'rsatmalar

Pasport davomiyligi 1 sutkadan kam boimagan har bir asosiy yoki sinov safari trassasi uchun alohida tuziladi.

Pasport safar boshlanadigan turistik korxonasi tomonidan tuziladi.

Sayohat hududidagi iqlim va ehtimoli boigan favqulodda hodi- salar to'g'risidagi ma'umotlar gidrometeo xizmat ma'lumotlari asosida kiritiladi.

Pasport safar trassada xizmat ko'rsatuvchi har bir turistik korxonasigajo'natiladi.

Safar trassasi ekspluatatsiyasi jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar, bir oy ichida pasportining barcha nusxalariga kiritilishi kerak. Zarur hollarda ba'zi sahifalar almashtiriladi yoki yangi pasport tuziladi.

5-ilova

I

Turistik korxonasi tomonidan 2017-yil oyda turistlar guruhlarining

YUKLANISH GRAFIGI

Guruh №	Turistik marshruti raqami	Xizmat ko'rsatish sanasi		
		1	2...	3
			30	1

Turistik yo'llanmasiga AXBOROTVARAQASI

Sayohat nomi Zaruriy ma'lumotnoma

Turistik safarning turi va xili, sayohat davomida va uning safar qismida ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy mazmuni ko'rsatiladi.

Sayohat yo'lining bayoni - to'xtash joylari, muddati va joyla- shish shart-sharoitlari va xizmatlar turi (bino xili, nomerdagi o'rinlar miqdori, uning sanitar-gigiyenik jihozlar) ko'rsatiladi.

Sayohat hududining qisqacha bayoni (yodgorliklar, relyefining o'ziga xosliklari), safarning har bir punkdagi xizmatlar dasturi (turistik safarining texnologik haritasiga mos ravishda) beriladi.

Qo'shimcha to'lovlar evaziga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati.

Sport inshootlari, maydonchalari, avtomobil turar joyi, yo'lov- chilar uchun osma ko'priklar, bolalar o'yin maydonchasi (xonalari) ku- tubxona, kinozal va boshqalar mavjudligi va qisqacha tavsif.

Turistik safari boshlanadigan turistik korxonasi manzili va unga borish yo'li.

Qo'shimcha ma'lumotlar taxminiy ro'yxati

Yosh cheklovi, bolali sayyohlar, oilalilar qabuli to'g'risida ma'- lumot.

Poxodli turistik safar uchun maxsus ma'lumot.

Boshqa ma'lumot va tavsiyalar.

Izoh: doimiy tibbiy nazoratda bo'lishi lozim bo'lgan shaxslarga sayo- hatning marshrutlari tavsiya etilmasligini ta'kidlash maqsadga muvofiq- dir.

Band qilish varaqasi

Raqam: Kategoriyasi: Toidirish namunasi: Ha
(tezkor/oddiy)

1. Turistlar haqida ma'lumot

Ro' yxatdan o'tish raqami	Ism sharifi	Pas port raqami	Tug 'ilgan vaqti	Qa bul qilingan hujjat

2. Dastur (davlatlar)

S	M	K	K	X	C	
hahar/ Kurort	ehmon- xona	elish vaqti	etish vaqti	unlik tunlar soni	ona turi, xonalar soni	vqat- lanish

Aviako'chish (aviakompaniya, klass):

Chaqiruv yordami:

Ijtimoiy himoya:

Transfer:

Mashina ijarasi:

Qo'shimcha xizmatlar:

Buyurtma narxi:

Tur uchun qo'shimcha to'lash shartlari:

Qo'shimcha inkor shartlari:

Buyurtmani qabul qildi:

ha

yo q

ha

y o q

ha

yo q

ha

yo q

(turagentlik ishchisi imzosi)

KURS ISHI YOZISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2005, 36-bet.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. 22-t, T., "Adolat", 2000, 131-140-betlar.

II. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti farmonlari

"O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi. PF-4861-sonli O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoni. Toshkent, 2016-yil 2-dekabr.

"O'zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666-sonli O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoni. Toshkent, 2016-yil 2-dekabr.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005-yilgacha bo'lgan davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 15.04.1999-yildagi PF-№2286 farmoni. "Xalq so'zi", №74, 1999, 16-aprel.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi 1162-raqamli "Buyuk Ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. "Xalq so'zi", 1995, 3-iyun.

III. Darsliklar

Aliyeva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. T., TDIU, 2007, 339-bet.

Кабушкин Н. И.. Менеджмент туризма. М., "Новое знание", 2005, 644 с.

Брижаков М.Б. Введение в туризм. С.Пб, Издательский Торговый Дом "Герда", 2006, 444 с.

Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. М., "Финансы и статистика", 2005, 107 с.

IV. O'quv qo'llanmalar

13. Tuxliyev I.S, Ibodullayev N.E. Turizmda operatorlik xizmatlarini tashkillashtirishning asoslari. Samarqand, 2011, 192 b.

Агамирова Е.В. Управление персоналом в туризме и гостинично-ресторанном бизнесе. Практикум. М., Издательско-торговая корпорация "Дашков и К", 2006, 176 с.

Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма. Учебное пособие, М, "КНОРУС", 2005, 448 с.

Вавиова Е.В. Основы Международного туризма. Учебное пособие, М., "Гардрарики", 2005, 160 с

Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие, М., "КНОРУС", 2005, 192 с

Косолапов А.Б. Практикум по организации и менеджменту туризма и гостиничного хозяйства. Учебное пособие, М., "КНОРУС", 2005, 208 с.

Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Учебное пособие, М., "КНОРУС", 2005, 240 с.

W.Pompl. Touristik management 1 (Beschaffungsmanagement) Springer-Lehrbuch Heidelberg, Germany, 1996.

W.Pompl. Touristik management 2 (Qualitdt-, Produkt-, und Preismanagement) Springer-Lehrbuch Heidelberg, Germany, 1996.

Travel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company "Uzbekturizm", 2014, 10 p.

Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey D. The Travel Industry. 3d. Wdit. New York John Wiley Sons Ine. 2005, 250 p.

Lundberg D., Krishnamurthy M. Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine. 2005, 210 p.

Hospitality, Tourism and heisure Management: Issues in Stre- egy and Culture. London, 2005, 265 p.

VII. Statistik ma'lumotlar to'plamlari

Основные показатели развития туризма. 2015, ВТО, Мадрид, 2016.

VIII. Internet saytlari

www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qo'nun hujjatlari portali

www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali

www.uzbektourism.uz.- O'zbekiston Respublikasi turizmni rivoj- lantirish qo'mitasi

www.world-tourism.org - Всемирная туристская организация

www.wttc.org - Всемирный Совет по путешествиям и туризм